

## **MATEMATIKANI O'RGATISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI , SANAMALARDAN SAMARALI FOYDALANA OLIISH USULLARI.**

*Qarshiyeva Muborak Arslonbek qizi*

*SamDU talabasi*

[Qarshiyevamuborak43@gmail.com](mailto:Qarshiyevamuborak43@gmail.com)

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodimizdan oqilona foydalana olish yoritib berilgan.

**Kalit so'z:** Sanama, didaktik o'yin, sanoq, o'nlik, yuzlik.

**Annotation:** In this article the rational use of our folk art in the formation of mathematical knowledge skills and abilities of elementary school students is highlighted

**Key words:** numbers, didactic game, counting, tens, hundred.

Boshlang'ich sinflarda darsni yangi pedagogik talablarga ko'ra tushunarli va qiziqarli o'tish o'qituvchidan mahorat talab etadi. Hozirgi kundagi turli didaktik o'yin metodlari bizning xalq og'zaki ijodimizda avvaldan turli o'yinlar, sanamalar ko'rinishida mavjud bo'lgan. Har bir o'tiladigan fanni, qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar, adabiyot bilan bog'lab o'ta olish dars samaradorligini oshiradi hamda o'quvchilarining xotirasida qolishida muhim rol o'ynaydi. Bu bilan o'quvchilar o'tilgan fanni bo'yicha bilimlarga ega bo'lish bilan birga xalq og'zaki ijodimizning namunalari bilan ham tanishishadi. Asosan boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika Аннотация tika darslarida sanoqni o'rgatishda xalq og'zaki ijodimizdagi sanamalardan foydalanish juda o'rinli. Bolalarning maktabgacha davridagi o'yinlari

asosida sanoqni o'rgatish ularga qulaylik yaratish bilan bir qatorda , ongli o'zlashtirishini ham ta'minlaydi.

Chumchuqcha uyga kirdi

Ochilcha uni quvdi

Hoy, chumchuq, mana eshik

Qani tezroq uchib chiq

Bir, ikki, uch, to'rt,

Besh, olti, yetti

Chumchuqcha uchib ketdi.

Mana shu birgina sanama orqali sanoqni o'rgatsak, bolalarning xotirasiga mustahkamroq o'rnashadi. Foydalanayotgan sanamalarimiz ,ayniqsa, tabiatga bog'liq bo'lib turli qushlar, hayvonlar, ifodansa bolalarning qiziqishlari yanada ortadi, ularning sanog'ini bilish zamirida sanoqni ham o'zlashtirishadi.

O'n, yigirma, o'ttiz, qirq ,

Ellik, oltmish, yetmish

Sakson , to'qson, yuz

Yuz karra yuz

Oppoq qiz

Oppoq qizning

O'zi siz.

Ushbu sanama shuni ko'rsatadiki, ular orqali o'quvchilarga nafaqat sanoqni, balki *o'nlik* haqidagi tushunchani ham shakllantirishimiz mumkin. Bu bilan o'quvchilar o'nlik tushunchasi, ularning ketma-ketligi , o'rni , qaysi so'ng qaysi biri keladi degan savollarga ham javob topadi. Dars davomida bolalarga og'zaki shaklda ushbu sanamalarni aytib, bolalarga ham sanamalarni aytirish lozim. Shu bilan bolalar sanamani yodlash mobaynida o'nlik sonlarni, ularning ketma-ketligini ham o'z o'zidan o'rganib olishadi.

-Ko'prik tagida quyuncha

Muzqaymoq sotib o'tiribdi

Uning puli

Ne-cha so'm?

-Besh yuz so'm ( Ikki yuz so'm, uch yuz so'm va hk)

O'quvchilarga *yuzlik* tushunchasini o'rgatishda ham sanamalarni qo'llash mumkinligi yuqoridagi sanamamizda o'z aksini topgan. O'quvchilarga didaktik o'yin jarayonida sanaladi va oxirida qolgan o'quvchiga «Necha so'm?» degan savol beriladi. Agar «Besh yuz so'm « degan javob berilsa, o'sha o'quvchi o'zi bilan besh kishini tanlashi mumkin. Bu bilan o'quvchida yuzlik tushunchasi shakllanishi bilan birga tarkibi haqida ham xulosalar chiqaradi. «Besh yuz so'm « deganda besh kishini olib chiqish mumkin, har bir o'quvchiga bitta yuz to'g'ri kelyapdi ,demak besh yuz soni beshta yuzlikdan iborat ekan. Mana shunday usullardan foydalanish o'rganish tezligini, darsning muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunga kelib bolalarga o'tiladigan turli didaktik o'yinlar , har xil samarali metodlarni bizning xalqimizga avvaldan ma'lum bo'lishgan. Endi ulardan foydalanib dars o'tish , o'quvchilarni adabiyot bilan hamnafas qila olish biz yosh o'qituvchilarning qo'lidadir.

Misollar:

1.Stakanga suv soldim

To'lib toshdi.

Samarqandga qiz berdim

Olib qochdi...

O'n, yigirma, o'ttiz ,qirq,

Ellik, oltmish, yetmish,

Sakson,to'qson, yuz

Yuz karra yuz

Dono qiz

Dono qizning, o'zi siz.

Atdim,batdim, men ketdim

Poyezd yo'liga yetdim.

Poyezd yo'li it bozor

It bozorda ayiq bor.

Ayiq meni qo'rqitdi

Yuragimni yirqitdi

Alli qizim,balli qizim

Chiqala qoling

Jajji qizim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Rahimova G. Ona tili va adabiyot (bolalar adabiyoti).O'quv qo'llanma-Samarqand:SamDU.

- 2.S.Alixonov. Matematika o'qitish metodikasi.